

POP TUMANI “CHORKESAR” HUDUDI YAYLOV YERLARIDAGI MUAMMOLAR, ULARNING YECHIMI VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR

G‘aniyev Ochilbek Orifjon o‘g‘li,

“O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1979 va 2023 yillarda Namangan viloyati Pop tumani “Chorkesar” hududidagi yaylov va pichanzorlarda olib borilgan geobotanik tadqiqotlar natijalarining qisqacha qiyosiy tahlili bayon qilingan. Tadqiqotlarda “Chorkesar” hududi uchun 1 : 25 000 masshtabli yaylov geobotanik va suv bilan ta‘minlanganlik darajasi bo‘yicha elektron raqamli xaritalari yaratilgan. Bunda muallif tomonidan mazkur hudud yaylov va pichanzorlarining o‘simlik qoplami, bugungi kundagi holati baholangan, ushbu yaylovlarning ozuqa birligidan kelib chiqib nechta shartli bosh chorva mollarini boqish mumkinligi ilmiy asoslangan. Shuningdek, ushbu hududda aniqlangan degradatsiyaga uchragan maydonlarni yaxshilash yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: “Chorkesar” hududi geobotanik tadqiqotlar, shartli bosh, yaylov o‘simliklar hosildorligi, baholash, qashshoqlashgan yaylovlar, gerbariylar to‘plami, degradatsiya, ArcGIS dasturi, elektron raqamli xarita, yaylovlar holatini yaxshilash.

Аннотация. В данной статье представлен краткий сравнительный анализ результатов геоботанических исследований, проведенных в 1979 и 2023 годах на пастбищах и сенокосах массива “Чоркесар” Попского района Наманганской области. В ходе исследований были созданы электронные цифровые карты геоботанических характеристик пастбищ и уровней водоснабжения в масштабе 1:25 000 для массива “Чоркесар”. При этом автор оценил растительный покров пастбищ и сенокосов данной территории, его современное состояние и на основе кормовой единицы этих пастбищ научно обосновал, какое количество скота можно пасти на этих пастбищах. Также, были даны предложения и рекомендации по восстановлению выявленных деградированных пастбищ.

Ключевые слова: массив “Чоркесар”, геоботанические исследования, продуктивность пастбищных растений, условная голова, оценка, объединенные пастбища, сбор гербариев, деградация, программа ArcGIS, электронная цифровая карта, улучшение состояния пастбищ.

Abstract. This article presents a brief comparative analysis of the results of geobotanical studies conducted in 1979 and 2023 on pastures and hayfields of the Chorkesar massiv in the Pop district of the Namangan region. During the research, electronic digital maps of geobotanical characteristics of pastures and water supply levels were created on a scale of 1:25,000 for the Chorkesar massiv. At the same time, the author assessed the vegetation cover of pastures and hayfields in this territory, its current state and, based on the feed unit of these pastures, scientifically substantiated how many livestock can be fed. Also, proposals and recommendations were made for the improvement of degraded areas identified in this territory.

Key words: “Chorkesar” massiv, geobotanical research, conditional head of livestock, productivity of pasture plants, assessment, depleted pastures, herbarium collection, degradation, ArcGIS program, electronic digital map, improvement of pasture condition.

Kirish. Hozirgi kunda global iqlim o‘zgarishi natijasida yer sharining turli mintaqalarida qurg‘oqchilikning ko‘tarilishi kuzatilmoqda. Mamlakatimizda yer suv resurslarining cheklanganligi sharoitida aholi sonining ortib borishi go‘sht, sut, jun va teri kabi chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning ham oshishiga sabab bo‘lmoqda. Aholining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini chorvachilikni rivojlantirish orqali qondirish respublikamizning tabiiy yaylov va pichanzorlari muhim tabiiy manba hisoblanadi. Bu borada yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqot va yaylov monitoring ishlarini o‘tkazishni taqozo etadi. Ushbu holat mamlakatimizda mavjud 21,1 mln [9] gektar yaylovlarga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Buning yaqol misolida tabiiy yog‘in miqdori o‘tgan yilga nisbatan kam bo‘lganligi, o‘z navbatida tabiiy yaylov va pichanzorlardagi o‘simliklar jamoasining xilma-xilligiga salbiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Bu esa yaylov va pichanzorlardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi. So‘ngi yillarda yaylov va pichanzorlarning aksariyat qismida mahsuldorlikning turli darajada pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu boisdan ushbu

hududlarda o‘sadigan o‘simlik dunyosi holatini yangicha asosda o‘rganish, o‘simlik qoplami bilan qoplanganlik darajasi, suv bilan ta‘minlanganlik darajasi, chorva mollarini boqishning yaylovlariga salbiy ta‘siri, ularni boqish muddati va me‘yolarini dunyo tajribasidan kelib chiqqan holda takomillashgan asosda ishlab chiqish qat‘iy boshqarishni yo‘lga qo‘yish, kamayib borayotgan ozuqabop va dorivor yaylov o‘simliklarini saqlab qolish hamda oqilona foydalanish samaradorligini oshiruvchi strategik me‘nejment tadbirlarini ishlab chiqish maqsadida ilmiy asoslangan geobotanik izlanishlar olib borish hozirgi davrdagi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi [6].

Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi “Ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlar o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli [2], 2018 yil 7 noyabrdagi “Hayvonot va o‘simlik dunyosi va ob‘ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi 914-sonli [3], 2019 yil 5 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida

atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 737-son [4] qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Qishloq ho'jaligi vazirligi "O'zdvayterloyiha" davlat ilmiy loyihalash instituti tomonidan yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqot va tabiiy yaylov monitoringi ishlari olib borilmoqda.

Tadqiqot obyekti va uslublari: Tadqiqot obyekti Pop tumani "Chorkesar" hududining tabiiy yaylov o'simliklari hisoblanadi. Geobotanik izlanishlar ushbu sohada keng qo'llanilib kelinayotgan uslublari [5] asosida amalga oshirildi.

Tog' va tog'oldi hududlar yaylovlarining o'simlik bilan qoplan-ganlik darajasi bo'yicha ArcGIS dasturidan foydalangan holda 1:25 000 masshtabli elektron raqamli geobotanik va suv bilan ta'minlanganlik xaritalari yaratildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Biz tomondan olib borilgan tadqiqotlar jarayonida Namangan viloyati Pop tumani "Chorkesar" hududidagi mavjud yaylovlarining bugungi kundagi xususiyatlari va holati aniqlandi hamda chorva mollarining suv bilan ta'minlanish holatlari o'rganildi.

"Chorkesar" hududi Pop tumani markazining shimoli-g'arbiy tomonida joylashgan, hudud shimol tomondan o'rmon ho'jaligi yerlari, sharqdan Chust tumani yerlari, janubdan Mashal hududi yerlari hamda g'arb tomondan vodiy hududi yerlari bilan chega-radosh [7].

"Chorkesar" hududining umumiy maydoni 35909 gektar shundan [9], 12 148 gektar(yoki hududning 34%)ni yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar o'tkazilib 16 ta asosiy va 22 ta qo'shimcha o'simliklar tavsifi daftarchalari tuzildi. Buta, yarim buta va yirik o'tlar uchun 16 ta transekt va 16 ta tuplarni modellarini qayd etish kartochkasi tuzilib, mayda o'tlar uchun 25 ta o'rish maydonchasi olindi. Olib borilgan geobotanik tadqiqotlarda hududda o'simliklarning 33 ta turi tarqalgani aniqlandi, shundan 29 tasi barcha mavsumlarda xamda qisman chorva mollari to-monidan yeyiladigan o'simliklar, 4 tasi chorva mollari yemaydigan zararli va zaxarli o'simliklardir. Yaylovlarining tarqalishiga qarab 5 ta yaylov guruhi, 6 ta yaylov tipi va 9 ta yaylov xiliga ajratildi. Hududlarning o'simlik bilan qoplanish darajasi o'rtacha 64,5% ni, olingan hosildorligi 2,19 s/ga va ozuqa birligi 1,16 s/ga ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 avgustdagi "Qishloq ho'jaligi ekin madonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 235-sonli qarori [1] 7-ilovasi O'zbekistonning tabiiy ozuqa ekin maydonlarini sifat jihatidan baholash mezonlari (yaylovlarining turlari) bo'yicha "Chorkesar" hududining yaylov yerlarida aniqlangan hosildorlik va ozuqa birligini hisobga olgan holda qashshoqlashgan yay-lovlar toifasiga ajratildi [1]. O'rtacha ozuqa birligidan kelib chiqib hududdagi tabiiy yaylovlarda 265-270 shartli bosh qoramol boqish imkoni mavjudligi aniqlandi [7].

O'rganishlar jarayonida 1979 yilgi yaylovlarining holati bilan 2023 yildagi holatini baholaydigan bo'lsak hosildorlik 1,5-2,0 s/ga kamaygan, o'simliklar 15-20 ta turi uchratilmaganligi va yog'ingarchilik miqdori 44 yil oldingi ko'rsatkichga nisbatan -22 mm kamligi tahlil qilindi. Ushbu iqlim o'zgarishi jarayonini shu bugungi kundagi global iqlim isishning isboti deb izohlanadi. Mavjud 12 148 gektar maydon yaylovlarining insonlar va chorva mollari ta'sirida jami 2 427 gektar (20%) maydoni turli (kuchli, o'rtacha, kuchsiz) darajada degradatsiyaga uchragan [7]. Tog'

va tog'oldi hududlar yaylovlarining yaylovlarining madaniy texnik holati aks ettirilgan ArcGIS dasturidan foydalangan holda 1:25 000 masshtabli elektron raqamli geobotanik yaylov xaritalari yaratildi[7].

Yuqoridagi salbiy holatlar hisobiga yaylovlarining hosildorligi va ulardan olinadigan ozuqaning sifati maydonlarning tuproq-iqlim sharoitlari bilan chambarchas bog'liq va ko'p jihatdan o'tloqning xo'jalik holatiga ham bog'liq bo'lib, ulardan noto'g'ri foydalanish natijasida hosildorligi keskin pasayib ketgani aniqlandi.

Ushbu holatni nafaqat tabiiy, balki antropogen omillar ta'siri-da vujudga kelgan deb izohlash o'rinli. Shu jumladan, tuman hududidagi yaylov yerlarini jadal o'zlashtirilishi, sug'orma dehqonchilikka jalb qilinishi, shuningdek, demografik jarayonlar bilan ham bevosita bog'liq.

Tabiiy omillardan havo haroratining oldingi yillarga nisbatan issiq kelganligi tufayli toshli yaylov maydonlarida o't-o'lanlarning qurishi ko'proq kuzatilmoqda. Buning natijasida o'simliklarning urug'larini to'liq pishib yetilmasdan qurib qolishi keyingi yilga yay-lov o'simliklarining kamayib yangi nihollarni unib chiqmasligiga sabab bo'lmoqda.

Yaylovlarining hosildorligi va ulardan olinadigan ozuqaning sifati maydonlarning tuproq-iqlim sharoitlari bilan chambarchas bog'liq va ko'p jihatdan o'tloqning xo'jalik sharoitiga ham bog'liq bo'lib, ulardan noto'g'ri foydalanish natijasida hosildorligi keskin pasayib ketgan.

Demak, kelgusida qishloq xo'jaligida yer tuzish loyihalash ishlarini amalga oshirish uchun muntazam monitoring qilish asosida mavjud yaylovlar hududini saqlash, ularni barqaror bosh-qarish muhim ekanligini ko'rsatadi. Bunda yaylovlar hududidan samarali foydalanishda nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki ekologik masalalarni strategik ahamiyati nuqtai nazaridan ish yuritish maqsadga muvofiq.

Xulosa, taklif va tavsiyalar. Pop tumani "Chorkesar" hududi-da ham qariyb 45 yil davomida (1979-2023 yy.) yaylov yerlarining kamayishi aholi sonining oshishi va oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun ko'plab yer maydonlari o'zlashtirib yuborilganligi bilan bog'liq;

Bugungi kundagi global iqlim o'zgarishi jarayoni, havo haro-ratining keskin darajada ko'tarilishi va yog'ingarchilik miqdorini kamayishi yaylovlarda ozuqabop o'simliklarni rivojlanishiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Yuqoridagi salbiy holatlar natijasida "Chorkesar" hududida ham 1979 yilgi tadqiqotlarga nisbatan 2023 yilda yaylovlarda ozuqa birligi va hosildorligi 1,5-2,0 s/ga kamayganligi aniqlandi. Bu borada, hududning aniqlangan o'rtacha hosildorligi va ozuqa birligidan kelib qashshoqlashgan yaylovlar toifasiga ajratildi.

O'rganilgan yaylovlarda 2427 gektar kuchsiz darajada degaradsiyaga uchragan. Bunday degradatsiyaga uchragan yaylovlarga erdan foydalanuvchilar tomonidan yaylov o'simlik vegetasiya davrini hisobga olgan holda, yer tuzish loyihalari asosida almashlab boqishni tashkil etish. Shuningdek hududda amaliyotda isbotlangan istiqbolli ozuqabop o'simliklar urug'larini ekish, bioxilma-xillikni saqlash maqsadga muvofiq.

Chorva mollari boqish uchun rejali almashlab boqishni tashkil etishda "Chorkesar" hududi uchun tuzilgan 1:25 000 masshtabli elektron raqamli geobotanik va suv bilan ta'minlanganlik xaritalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 avgustdagi "Qishloq ho'jaligi ekin madonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 235-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer

resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 299-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrdagi "Hayvonot va o'simlik dunyosi va ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi 914-sonli qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 737-sonli qarori.

5. Ruzmetov M.I., Turaev R.A., Davronov O.O', Norqulov M.N., Akramov I.L., Xakimov B.B., Bag'bekov H.K., Xaitova K.M., O'zbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma. - Toshkent: "Fan ziyosi", 2022. - 156.

6. G'aniyev O.O. Yangiqo'rg'on tumani yaylovlarning bugungi holati // "O'zbekiston zamini" ilmiy-amaliy va innovatsion jurnali. Toshkent. - 2023. - №4. - B. 143-145.

7. Pop tumani "Chorkesar" hududi yaylov va pichanzorlarida olib borilgan geobotanik tadqiqotlar tavsifnomasi / "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti "Namvilyerloyiha" hududiy bo'linmasi hisoboti. - Namangan, 2023. - 84 b.

8. Геоботаническое обследование за предельных пастбищ Ферганской области на территории Попского района Наманганской области УзССР / Отчет ГНПИ «Узгипрозем». - Ташкент, 1980. - 96 с.

9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palatsi / O'zbekiston Respublikasining yer fondi. - Toshkent, 2023. - 120 b.

UO'T: 631.551.552/554

TURLI TUPROQ-IQLIM SHAROITLARIDA YETISHTIRILGAN KUZGI BUG'DOY NAVLARI O'RIM MUDDATLARINING DONNING TEXNOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI

Ishankulova Gavxar Norkulovna, qishloq xo'jalik fanlari falsafa doktori, dotsent,
Axmatova Gulnurxon Shuhratovna, talaba,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti.

Аннотация. В статье представлены сведения о влиянии сроков уборки на изменение содержания белка в зерне сортов озимой пшеницы, выращиваемых в разных почвенно-климатических условиях.

Ключевые слова: пшеница, сорт, содержание белка, почвенно-климатические условия, влага.

Abstract. The article presents information on the influence of harvesting timing on changes in protein content in the grain of winter wheat varieties grown in different soil and climatic conditions.

Key words: wheat, variety, protein content, soil-climate, moisture.

Kirish. Mamlakatimizda oxirgi yillarda turli tuproq-iqlim sharoitlarida kuzgi yumshoq bug'doy navlarining hosildorligi va texnologik sifat ko'rsatkichlarini oshirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. "Respublikamizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi doirasida «...ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish» da bug'doy navlarining hosildorligini oshirish va saqlab qolish, sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga doir agrotadbirlarini ishlab chiqish borasidagi tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

L.X. Toxtiyeva, D.N. Doyev, B.A. Datiyevalar bug'doyning pishish sifatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar orasida yetakchi o'rin kleykovinaga tegishli. So'nggi yillarda kleykovina miqdori bilan bir qatorda uning sifatiga ham katta ahamiyat berilmoqda. U elastiklik, cho'zilish, kuch kabi jismoniy xususiyatlarining kombinatsiyasi sifatida aniqlanadi. Ko'pgina olimlarning ta'kidlashicha, don tarkibidagi kleykovina sifati deyarli 50% navning genetikasiga, qolgan 50% esa o'sish sharoitiga bog'liq. Kuzgi bug'doy donida

o'rim-yig'imdan keyin pishib etish natijasida, qoida tariqasida, nonning hajmi va g'ovakligi oshishi bilan birga, xom kleykovina miqdori va sifati sezilarli darajada oshadi. Pishish jarayonida II guruhdagi don tarkibidagi kleykovina I guruhga o'tadi. Kuzgi bug'doy donining mahsuldorligi va sifati ko'p jihatdan nav, o'sish sharoiti, o'z vaqtida yig'ib olish, bo'lgan hosilni yig'ib olingandan keyingi optimal qayta ishlash va mahsulotni saqlashga bog'liqligini o'z tadqiqotlarida isbotlab berdi [1, 2].

So'nggi o'n yillikda kuzgi bug'doy donining sifatini barqaror pasayish tendensiyasi kuzatildi. Don tarkibidagi oqsil va kleykovina don sifatining eng muhim ko'rsatkichlari bo'lib, seleksiya jarayonining barcha bosqichlarida boshlang'ich materiallarni baholashda katta e'tibor beriladi. Iqtisodiy va biologik xususiyatlarining ijobiy kompleksiga ega bo'lgan, shuningdek don tarkibida oqsil miqdori yuqori bo'lgan intensiv turdagi kuzgi bug'doy navlarini yaratish seleksiya fani va genetikasining asosiy vazifalaridan biridir. Mahalliy va chet ellik mualliflarning ko'plab tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, don tarkibidagi oqsil miqdori poligenik xususiyatga ega bo'lgan irsiy xususiyatdir, ammo shunga qaramay, don tarkibidagi oqsil miqdori tuproq va iqlim sharoitiga, uning davomiylikiga qarab katta o'zgaruvchanlikka ega, vegetatsiya davri, mineral oziqlanish, o'tmishdoshlar va boshqa omillar. So'nggi